

**“O‘zbekgeofizika” AJga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy
xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni
qabul qilish va ko‘rib chiqish
REGLAMENTI**

I-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Reglament “O‘zbekgeofizika” AJda (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va tegishli ta’sir choralarni ko‘rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Reglament Jamiyatdagi aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida kelib tushgan xabarlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari, shuningdek, xabarlarni qabul qilish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish va ko‘rib chiqish, shuningdek, Jamiyat Boshqaruv Raisiga hisobot taqdim etish tartibini belgilaydi.

Jamiyat aloqa kanallaridan kelib tushgan taaluqli xabarlarni O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentabrdagi O‘RQ-445-sonli “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 7 maydagi 341-sonli “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy Nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi Qarori hamda “O‘zbekgeofizika” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalarida, tasarrufidagi filiallarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablarida nazarda tutilgan tartibda qabul qiladi, ro‘yxatdan o‘tkazadi va ko‘rib chiqadi.

3. Mazkur Reglament maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

ishonch telefoni – Jamiyatga ishonch telefon orqali kelib tushadigan murojaatlarni markazlashgan holda qabul qilish, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek, o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishini monitoring qilish imkonini beruvchi tizim;

murojaatchi – aloqa kanallari orqali Jamiyatdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida axborot berish uchun murojaat qilgan har qanday jismoniy va (yoki) yuridik shaxs, xodim;

manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, Jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy

naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korruptsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan, pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik – korruptsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi – amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarni korruptsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, tashkilot xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui;

korruptsiyaviy xavf-xatar – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan Jamiyat nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko'zlab korruptsiyaviy harakatlarni sodir etish xavfi;

taaluqli xabar – Jamiyatdagi korruptsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo'lgan xabar;

xodim – Jamiyat bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida o'zi yoki uchinchi shaxslarning manfaatlari yo'lida xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy boyliklar, boshqa mol-mulk va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijoriy yoki notijoriy manfaatlari);

Tarkibiy bo'linmalar – "O'zbekgeofizika" AJ bo'limlari, to'g'ridan – to'g'ri bo'ysinuvchi partiyalari va filiallari.

4. Jamiyat korruptsiyaviy harakatlar haqida axborot berishga mo'ljallangan aloqa kanallarining ishini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etadi:

Maxfiylik (konfedsiallik) va xavfsizlik – aloqa kanallaridagi xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan Jamiyatning barcha vakolatli shaxslari ushbu xabarlarni vakolatga ega bo'lmagan shaxslarga berish (oshkor qilish)ga haqqi yo'q. Agar murojaatchi o'z xabarini yuborganligi xaqida boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga o'z xohishiga ko'ra, jumladan, ehtiyotsizligi natijasida oshkor qilgan bo'lsa, Jamiyat uning oshkor bo'lishiga javobgar bo'lmaydi;

qonuniylik – Jamiyat aloqa kanallariga kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, qayta ishlash va ko'rib chiqish qat'iy ravishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va ushbu Reglamentga muvofiq amalga oshiriladi;

murojaatchining ta'qib qilinmasligi – aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy harakatlar haqida o'z xohishiga ko'ra xabar bergan jismoniy va yuridik shaxs, xususan Jamiyat xodimi xabarning mazmunidan qat'i nazar biron-bir javobgarlikka tortilmaydi;

murojaatchi bilan majburiy tartibdagi qayta aloqa – agar xabar anonim bo‘lmasa, uni ko‘rib chiqish natijalari Jamiyat tomonidan murojaatchiga yetkazilishi lozim;

ta’sir choralari qo‘llashning majburiyligi – korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda, tashkilot aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi.

II-bob. Korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari

5. “O‘zbekgeofizika” AJda korrupsiyaga oid xabarlar quyidagi aloqa kanallari orqali ma’lum qilish mumkin:

- bevosita Jamiyat Boshqaruv raisiga;
- ishonch telefon orqali - 71-264-84-05;
- Jamiyat rasmiy veb-sayti orqali - <https://www.uzbekgeofizika.uz>;
- pochta orqali-100060, Toshkent sh., M.Ulugbek tumani, Buyuk kelajak ko‘chasi, 5-uy;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati” bo‘limiga (tel.: 99-370-01-07, elektron pochta - anticorruption@uzbekgeofizika.uz;
- Jamiyatning Axloq komissiyasi raisiga (tel. 71-286-24-06);
- mazkur Reglamentda ko‘rsatilmagan boshqa aloqa kanallari orqali.

6. Jamiyat aloqa kanallari to‘g‘risidagi axborotni rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqdagi sahifa va kanallariga joylashtiradi, shuningdek, xodimlarga davriy ravishda yuboriladigan elektron xatlar tarqatmalariga va o‘quv materiallariga kiritadi, Jamiyat binosida joylashtiriladigan tematik plakatlar va hokazolarda aks ettiradi.

III-bob. Aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan taaluqli xabarlarni qabul qilish

7. Jamiyatning “Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati” bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – Komplaens nazorati bo‘limi) Jamiyat aloqa kanallaridan kelib tushgan taaluqli xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqishga mas’ul hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali;
- O‘zbekiston Respublikasi tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi orqali;
- Jamiyatning rasmiy veb-sayti yoki elektron pochta orqali;
- Jamiyatning telefon raqamlari (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari) orqali;
- Jamiyatga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilish;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar, boshqa tashkilot va muassasalar orqali.

8. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlar, ularning oila a‘zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta’minlash maqsadida ular haqidagi ma’lumotlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida oshkor etilishi mumkin.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlar, ularning oila a‘zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Jamiyat tomonidan qonunbuzarliklar haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimdan tushirish, kamsitish, ta'qib qilish kabi tazyiqlarga yo'l qo'yilmaslik va taqdim etilgan ma'lumotlar boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga ularning rozilgisiz oshkor qilinmaslik ta'minlanadi.

9. Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy veb-sayt va sahifalari orqali kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish uchun "Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati" bo'limi (bundan buyon matnda – Komplaens nazorati bo'limi deb yuritiladi) mas'ul xisoblanadi.

Bunda, taaluqli xabar kelib tushganda komplaens nazorati bo'limi murojaatchi bilan elektron yozishma yo'li bilan yoki telefon orqali bog'lanib zarur axborotni aniqlashtiradi, xabarni Reestrda ro'yxatga oladi va ma'lumotni Jamiyat Boshqaruvi Raisiga taqdim qiladi.

Komplaens nazorati bo'limi kelib tushadigan xabarlarni dushanbadan jumagacha soat 08:00 dan 17:00 ga qadar tahlil qiladi. Agar xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, bu xabar navbatdagi ish kunida aniqlashtirish uchun saqlanadi (kechirtirib bo'lmaydigan holatlar bundan mustasno).

10. Agar murojaatchi o'z xabarini tasdiqlash uchun qo'shimcha materiallarga, masalan, fotomateriallar, hujjatlar, audio va videoyozuvlarga ega bo'lsa, murojaatni qabul qilishga mas'ul xodim ularni taqdim etish bo'yicha foydalaniladigan aloqa kanallarini (telegramm boti yoki elektron pochta)ni ko'rsatadi va taqdim etiladigan ma'lumotni maxfiyligi (konfidentsialligi)ni bildiradi. Mazkur ma'lumotlar taaluqli xabarga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.

11. Jamiyat Boshqaruv Raisi taaluqli xabarni tezkorlik bilan tahlil qilish va ko'rib chiqish uchun Jamiyatning Komplaens nazorati bo'limiga topshiriq tushiradi.

12. Komplaens nazorati bo'limi taaluqli xabarni olgandan keyin 1 (bir) soat ichida uni ilovaga muvofiq shaklda Jamiyatda korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reestrda (keyingi o'rinlarda – Reestr) ro'yxatga olishi va ushbu Reglamentning 4-bobiga muvofiq ko'rib chiqishi lozim.

13. Jamiyat murojaatchilarga xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy xarakatlar to'g'risida anonim xabarlar qoldirish imkoniyatini beradi.

Anonim xabar kelib tushgan taqdirda Komplaens nazorati bo'limi, imkon mavjud bo'lgan taqdirda, quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- Jamiyatga kelib tushgan xabarga javob berish uchun murojaatchi bilan bog'lana olmasliklari mumkinligi haqida ma'lum qilishi;
- qo'shimcha zarur ma'lumot olish imkoniyati bo'lmagan taqdirda xabarni to'liq va har tomonlama o'rgana olmasliklarini bildirishi;
- murojaatchiga u bilan bog'lanish uchun anonim aloqa kanali tashkil qilishni taklif qiladi (shaxs ko'rsatilmagan elektron pochta manzili, Telegrammdagi maxfiy chat va boshqalar).

Murojaatchi o'z arizasidan voz kechmagan taqdirda, mazkur Reglamentda nazarda tutilgan tartibda xabarni qabul qilishi shart.

13. Komplaens nazorati bo'limi olingan xabarlarni ko'rib chiqish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etishning sabab va sharoitlari ham tahlil qilinadi va kelgusida ularning oldini olish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi.

14. Olingan xabarlar bo'yicha barcha taaluqli materiallar, hujjatlar va ma'lumotlar (shu jumladan, qabul qilingan qarorlar va murojaatchilarga yuborilgan javoblar) murojaatlar bilan ishlash tuzilmasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatga, shu bilan birga 3 (uch) yildan kam bo'lmagan muddatga saqlanishi kerak.

15. Taaluqli xabar Jamiyat tarkibiy bo'linmalariga kelib tushgan taqdirda, uni qabul qilgan xodimlar zudlik bilan yozma shaklda tarkibiy bo'linma rahbari va Komplaens nazorati bo'limini kelib tushgan xabar to'g'risida xabardor qiladi. Komplaens nazorati bo'limi olingan xabarni IV-bobida bayon etilgan tartibga muvofiq ko'rib chiqadi.

IV-bob. Korrupsiyaviy harakatlar haqidagi xabarlarni ko'rib chiqish

17. Komplaens nazorati bo'limi tomonidan kelib tushgan barcha taaluqli xabarlar ushbu tuzilmaning mas'ul xodimlari va tegishli mutaxassis talab etilgan hollarda Jamiyat Boshqaruv raisi topshirig'iga asosan boshqa bo'linmalarning masul xodimlarini jalb qilingan holda ko'rib chiqiladi.

18. Korrupsiyaviy xarakatlari to'g'risidagi xabarlarni ko'rib chiqish jarayoniga, harakatlari ustidan taaluqli xabar kelib tushgan yoki ko'rib chiqish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xodimlarni jalb qilish man etiladi.

19. Taaluqli xabar kelib tushganda Komplaens nazorati bo'limi dastlabki tekshirish o'tkazib, uning taaluqliligini tahlil qiladi, ya'ni xabarda ko'rsatilgan ma'lumotning Jamiyatga taaluqli korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka yoki manfaatlar to'qnashuviga tegishlilikini tekshiradi.

Dastlabki tekshirish taaluqli xabar Komplaens nazorati bo'limiga kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

20. Mazkur Reglamentning 19-bandida nazarda tutilgan dastlabki tekshirish natijalaridan qat'i nazar, bu haqdagi axborot Reestrda kiritiladi.

21. Agar Komplaens nazorati bo'limi xabar taaluqli emas degan xulosaga kelsa, bu xabar bir ish kuni ichida Jamiyatning tegishli bo'linmasiga bildirgi asosida o'tkazilishi lozim.

22. Agar xabarda korrupsiyaviy harakatlar yoki manfaatlar to'qnashuvi haqida ma'lumot hamda xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa, Komplaens nazorati bo'limi ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o'tkazish tashabbusi bilan chiqadi.

23. Taaluqli xabarlarni mazmunan ko'rib chiqish Jamiyatga kelib tushgan kundan e'tiboran 15 (o'n besh) kun ichida, tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari, Jamiyat Boshqaruv raisi tomonidan istisno tariqasida uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga (anonim murojaatlardan tashqari) xabar qilinadi.

24. Murojaatga javob Komplaens nazorati bo'limi tomonidan tayyorlanib, Jamiyat Boshqaruv raisi imzosi bilan rasmiylashtiriladi.

25. Taaluqli xabarlarni ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra o'rganish natijalari va qo'llanilgan ta'sir choralari ko'rsatilgan javob xati tayyorlanadi va belgilangan tartibda murojaatchiga yuboriladi.

26. Ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar va telegram-bot orqali kelib tushgan taaluqli xabarga javob murojaatchiga elektron shaklda ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar yoki telegramm-bot orqali yuboriladi.

V-bob. Hisobdorlik

27. Reestrda Komplaens nazorati bo'limi xodimlari, xabarlarni ko'rib chiqishda ishtirok etgan tegishli boshqa Jamiyatning xodimlari (faqat shunday xabarlarga doir), Jamiyat Boshqaruv raisi yoki boshqaruv raisining korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishini nazorat qiluvchi o'rinbosari foydalanishi mumkin.

28. Reestr ma'lumotlari asosida Komplaens nazorati bo'limi har chorakda Jamiyat Boshqaruv raisiga qabul qilingan korrupsiyaviy xarakatlar to'g'risidagi xabarlarga taaluqli bo'lgan hisobotni taqdim etadi va unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- kelib tushgan taaluqli xabarlar va ko'rib chiqilgan taaluqli xabarlar soni;
- korrupsiyaviy xarakatlar, manfaatlar to'qnashuvi holatlari tasdiqlangan taaluqli xabarlar soni;
- ko'rib chiqish muddatlari buzilgan taaluqli xabarlar soni;
- taaluqli xabarlarni ko'rib chiqishning o'rtacha muddati;
- murojaatchilar tomonidan eng ko'p foydalaniladigan aloqa kanallari va boshqa statistik ma'lumotlar.

VI-bob. Yakuniy qoidalar

29. Mazkur Reglament talablarini buzish belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

30. Mazkur Reglament, murojaatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi o'zgarganda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

“O‘zbekgeofizika” AJga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamentiga Ilova

Jamiyatda korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarini qabul qilish
REESTRI

		:	.	.	.	T/r
						Xabar kelib tushgan sana
						Hudud
						Xabarning toifasi (korrupsiyaviy xatti-harakat, manfaatlar to‘ qnashuvi)
						Murojaatlar bilan ishlash tizimida ro‘ yxatga olingan sana va raqami
						Xabar yuborilgan aloqa kanali
						Murojaatchi ma’ lumotlari (jismoniy yoki yuridik shaxs, qayta aloqa lumotlari)
						Xabarning qisqacha mazmuni
						Xabar taaluqli bo‘ lgan tuzilma
						Ko‘ rib chiqish natijalari qanoatlantirildi/ tushuntirish berildi/ ko‘ rmasdan qoldirildi
						Murojaatchiga javob yuborilgan sana va xat raqami
						Ijrochi
						Xabarni ko‘ rib chiqqan tuzilma rahbari
						Izoh